

Xolmatov Oybek Umarjon o'g'li,
FarDU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5912089>

ERIX MARIYA REMARK O'ZBEKISTONDA

Annotatsiya: *Maqolada nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark ijodining O'zbekistonga kirib kelishi, Remark asarlarining tarjima qilinishi va ilmiy o'rganilishi masalasi tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *adabiy aloqalar, qiyosiy metod, badiiy tarjima, talqin, tahlil*

XX asr harbiy prozasida urushlarining vayronkor mohiyati, fojiali oqibatlarini tasvirlash asosiy o'rinda turdi. G'arbiy Yevropa va AQSH yozuvchilaridan A.Barbyus, R.Oldington, F.S.Fitsjerald, E.Xeminguey, U.Folkner singari ijodkorlarning asarlarida jahon urushlarining insoniyat hayotiga salbiy ta'siri masalasi urush odamlari obrazi vositasida badiiy ifodasini topgan. Urush va inson munosabati, ayniqsa, nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark ijodida asosiy o'rinni egalladi. Remarkning nomini yozuvchi sifatida tanitgan asar 1929-yilda yozilgan "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani bo'ldi. Shundan so'ng yozuvchining "Qaytish" (1931), "Uch og'ayni" (1938), "Zafar darvozasi" (1946), "Hayot uchquni" (1952), "Hayot-mamot pallasi" (1954), "Qora haykal" (1956), "Osmon hech qanday seviklini bilmaydi" (1961), "Lissabondagi tun" (196), "Jannatdagi soyalar" (1971) va boshqa asarlari yozilgan. Remarkning ilk asarlari chet tillariga tarjima qilinib, chop etilishi bilanoq katta shuhratga erishdi. Xatto Shvetsiya akademiyasi tomonidan adabiyot sohasida Nobel mukofotiga ham laureat bo'ldi. Buning sababi Remark yaratgan asarlarning qahramonlari XX asr kishilarining, urushda ishtirok etgan odamlarning taqdiri, murakkab tuyg'ulari realistik tarzda tasvirlangan tiplari edi. Bu qahramonlar orqali urushdan aziyat chekkan ko'plab insonlar o'z qiyofalarini ko'rganlar. Yozuvchining barcha asarlari urushning fojiali salbiy oqibatlarini real aks ettirish vositasida urushni qoralagan, patsifizm g'oyasini ifodalagan asarlar edi. O'zbekistonda Remark asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va ijodini o'rganish mustaqillikdan keyin boshlandi. Mustaqillik yillarida nemis yozuvchisining asarlarini tarjima qilishda birinchilardan bo'lib Nizom Komil faollik ko'rsatdi. E.M.Remarkning mashhur asari – "Uch og'ayni" ("Drei Kameraden") romani birinchi marta "Jahon adabiyoti" jurnalining 1998-yil 7–9-sonlarida aynan Nizom Komil tarjimasida bosib chiqarildi. 2002-yilda "Ma'naviyat" nashriyoti bu asarni kitob ko'rinishida chop etdi. "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" ("Im Westen nicht Neues") romani ham ilk marta "Jahon adabiyoti" jurnalda Nizom Komil tarjimasida bosildi (2001-yil 5–6-sonlar). Ushbu roman 2004-yilda "Yangi asr avlodi" nashriyotida "Esizgina, yoshligim" nomi bilan chop etilgan. 2016-yilda bu roman o'zining haqiqiy "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" nomi bilan "Kamolot kutubxonasi" rukni ostida nashr qilindi. Nizom Komil Remark asarlarining dastlabki tarjimoni sifatida qayd etiladi. Tarjimon yuqoridagi asarlarni rus tilidan tarjima qilgan.o'nggi yillarda ham Remark asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni to'xtab qolgani yo'q. Xususan, yozuvchining "Lissabondagi tun" romani Saidjalol Saidmurodov

tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 2016-yili "Jahon adabiyoti kutubxonasi" rukni ostida chop etildi. S.Saidmurodov ham tarjimini rus tilidan amalga oshirgan. E.M.Remark ijodining o'rganilishi masalasida dunyo olimlaridan H.Kleyn, M.Parvanova, M.Taylor, H.Blum, P.Luikkonen, O.Poxalnikov, A.Matveev, D.Morev, A.Porshneva, V.Makarevich kabi tadqiqotchilar ilmiy ish olib borganlar. Remark asarlarining tarjima qilinishi va keng kitobxonlar ommasining e'tiboriga tushishi yurtimizda ham ushbu yozuvchi ijodini o'rganish zaruratini keltirib chiqardi. Biroq O'zbekistonda Remark ijodining ilmiy asosda o'rganilishi hozirda boshlang'ich bosqichda turibdi. O'zbek olimlaridan Y.Egamova, R.Qo'chqor, S.Saidmurodov kabi mutaxassislar Remark ijodiga xos xususiyatlar, uning asarlari yuzasidan atroflicha tahlillar amalga oshirganlar. Jumladan, Y.Egamova va D.Ayupovalar hammuallifligida yozilgan "Remark uslubi va uni tarjimada berish" maqolasida "Uch og'ayni" romani va uning tarjimasi yuzasidan qarashlar bayon etilgan. Asarning Nizom Komil tarjimasidagi o'zbekcha matni nemis va rus tillaridagi matni bilan solishtirilgan holda o'rganilib, Nizom Komilning tarjimonlik mahoratiga yuqori baho berilgan. Xususan, "Uch og'ayni" va "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanlari tarjimasi haqida: "Ushbu tarjimalarni o'qirkansiz, go'yo Remark ularni o'zbek tilida yozganmi deb o'ylab qolasiz. Chunki Nizom Komil bu ishga ilgari tayyorgarlik ko'rgani, Remark hayoti va ijodini chuqur o'rgangani sezilib turadi" deb ta'rif beriladi. Mualliflar tarjima matnini tahlil qilish jarayonida yo'l-yo'lakay Remarkning badiiy ifoda uslubiga ham to'xtalib o'tadilar: "Yozuvchi asarda turli-tuman badiiy-tasviriy vositalar: o'xshatish, sifatlash, metafora, metonimiya, obrazli birikmalarga keng o'rin berganki, bular tasvirning jonli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan. Faqat o'xshatishlarning o'zi 260 dan ortiq o'rinlarda qo'llanilgan. Bular personajlarning portretlari, so'zlash manerasi, hatti-harakatlari, tabiat tasvirida uchraydi." Yozuvchi uslubining bu xususiyatlari tarjimada to'liq aks etganligi, asar vositachi til (rus tili) orqali tarjima qilinganligi ham tarjimaning saviyasiga putur yetkazmaganligi qayd etiladi. Shu tariqa, maqolada romanning original nemischa, tarjimon foydalangan ruscha va tarjima qilingan o'zbekcha variantlari solishtirilib, tarjimaning muallif originalidagi badiiylikka yaqin ekanligi e'tirof etilgan. Rahmon Qo'chqor ham "Mayjudlik muammosi" maqolasida Remarkning "Uch og'ayni" romani haqida to'xtaladi. Maqolada olim romanning bosh qahramonlari emas, Grau, Roza, Xasse, Lili, Artur kabi ikkinchi darajali qahramonlariga asosiy e'tiborini tortadi. Maqolada inson va borliq munosabati masalasi "Uch og'ayni" romani qahramonlari vositasida talqin etiladi. Tahlil jarayonida Rahmon Qo'chqor urush va jamiyat munosabatlarining falsafiy talqini masalasiga alohida urg'u beradi. Lekin, olim "Uch og'ayni" romanidagi xarakterlar, yozuvchining badiiy mahorati kabi masalalarga yetarlicha to'xtalmaydi.

Saidjalol Saidmurodovning "Tinchlik nomi ila" nomli maqolasida Remark ijodida tinchlikparvarlik prinsipi masalasi markaziy o'rinda turadi. Muallif maqolada Remark romanlarini ikki guruhga ajratgan. Birinchi guruhga I jahon urushi mavzusida yozilgan, "yo'qotilgan avlod"ga mansub qahramonlar haqidagi "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Qaytish", "Uch og'ayni", "Qora haykal" kabi romanlarni, ikkinchi guruhga esa antifashistik xarakterda, muhojirlik mavzusida yozilgan romanlar: "Zafar darvozasi", "Hayot uchquni", "Hayot-mamot pallasi", "Lissabondagi tun" asarlarini kiritgan. Bu maqola obzor xususiyatga

ega bo'lib, unda S.Saidmurodov masalaga umumiy planda yondashadi .

Remark ijodining O'zbekistonda o'rganilishi yuqoridagi manbalar bilan cheklanadi. Adib ijodi haqida katta ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiya yoki monografiyalar hozircha yaratilmagan. Shu sababli ham Remark ijodini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Egamova Y., Ayupova D. Remark uslubi va uni tarjimada berish. www.kh-davron.uz
2. Qo'chqor R. Mavjudlik muammosi // "Tafakkur" jurnali. 2014-yil, 4-son. www.hayrat.uz
3. Саидмуродов С. Тинчлик номи ила. // Ремарк Э.М. Лиссабондаги тун. – Т.: "O'ZBEKISTON", 2016
4. Kholmatov, O. U. U. (2020). Interpretation of "lost generation" in the creation of Erih Maria remark. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1654-1659